




FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**FARG'ONA VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2023-YIL YANVAR-IYUN
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



**Tel.: 73-241-96-28
www.farstat.uz**


Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 14 968,7 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,2 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg‘ona shahrida (12 415,3 ming so‘m), Qo‘qon shahrida (7 518,3 ming so‘m), Toshloq tumanida (5 889,3 ming so‘m) hamda Uchko‘prik tumanida (5 300,3 ming so‘m) ni tashkil etmoqda.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **14 008,2** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **93,6 %** ni, tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-iyun oylarida Viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Farg'ona shahri (26,2 %), Qo'qon shahri (15,3 %), Toshloq tumani (8,5 %), Uchko'prik tumani 8,4 %), hamda Qo'shtepa (6,2 %) tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Buvayda tumanida (115,3%), Uchko'prik tumanida (112,3 %) hamda Marg'ilon shahrida (110,4 %) tumanlarida



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **69,4** mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %**ini tashkil etdi.



Yanvar-iyun

2022-y. 34,8 mlrd. so‘m

2023-y. 69,4 mlrd. so‘m

FHI, %da

2022-y. 16,3%

2023-y. 183,3%

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **14 008,2** mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining **93,6 %**ini tashkil etdi.

Yanvar-iyun


2022-y. 12 970,8 mlrd. so‘m

2023-y. 14 008,2 mlrd. so‘m

FHI, %da

2022-y. 105,1%

2023-y. 104,0%



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati**
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

	Dizel yoqilg'isi	Avtomobil benzini	Klinker sement
2023	230,0	2023 182,6	2023 27,0
2022	81,2	2022 82,8	2022 75,0
2021	96,8	2021 97,7	2021 123,6
	O'simlik yog'i (tozalangan)	Portlandsement	Yumshoq bug'doy va spelta uni
2023	56,1	2023 89,5	2023 75,4
2022	70,6	2022 93,3	2022 91,2
2021	67,0	2021 82,2	2021 95,9
	Neft bitumi	Aroq ming litr (100% spirit)	Uzum vinosi
2023	3,0 m	2023 115,9	2023 76,0
2022	48,1	2022 55,3	2022 69,0
2021	4,0 m	2021 105,5	2021 47,7
	Karbamid	Paxta chigit	Paxta linti
2023	107,1	2023 125,5	2023 97,3
2022	92,9	2022 162,7	2022 189,2
2021	72,1	2021 177,1	2021 182,7

2023-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 174,2 ming tonna avtomobil benzini (2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 82,6% ga ko'paygan), 230,0 ming tonna dizel yoqilg'isi (63,7 % ko'paygan), 56,5 ming tonna kalava ip mahsulotlari (15,3%ga kamaygan) hamda 19027,1 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (37,5%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	95,4	174,2	78,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	118,1	116,6	-1,5
Paxta chigit, ming t.	44,9	61,4	16,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	8,4	4,7	-3,7

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 8,0 % (2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 121,6%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 39,4% (2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,3 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,8% (2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 103,1%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,2 % (2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 114,1 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 %ni (2022-yilning yanvar-iyun oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,8 % (14,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 22,3% (20,7%) va quyi texnologiyalisi – 55,1% (57,8%)ni tashkil etdi.





Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati 96,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,7%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 206,3 % ni tashkil etgan.


2022-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati 48,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,3%ni etdi o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 29,2 % ga kamaydi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 14,4 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 1 721,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 10,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,1 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 2066,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,7 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 30,0 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 40,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


2022-yilning yanvar-iyun oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 65,1 % ni tashkil etgan.



To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 9,3 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 4 537,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 38,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 125,4 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 %, fizik hajm indeksi 138,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 729,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 97,8 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,5 % ni, fizik hajm indeksi 110,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1604,1 mlrd.so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,9 % ni fizik hajm indeksi esa 113,7 % ni tashkil etgan.

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,9 % ni, fizik hajm indeksi 78,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 824,8 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,6 % ni fizik hajm indeksi esa 57,3 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 137,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 383,2 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni fizik hajm indeksi esa 103,9 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 230,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 138,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni fizik hajm indeksi esa 78,3 % ni tashkil etgan.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi 113,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 305,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni fizik hajm indeksi esa 71,5 % ni tashkil etgan.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 %, fizik hajm indeksi 20,3 % ga ko‘paydi hamda ishlab chiqarish hajmi 416,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni fizik hajm indeksi esa 162,4 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2023-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 786,9 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,3% ini) tashkil etadi.


2023-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 16,5 mlrd. so‘mga kamayganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	213,6	167,7	-45,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	666,6	884,1	217,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 104,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	47,8	8,6	-39,2
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	11,1	10,0	-1,1


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 39,2 mlrd. so'm yoki 22,2 %ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 28,8 %ga kamaydi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 703,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 102,2 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 24,7%ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil
yanvar-iyun



Nooziq-ovqat mahsulotlari

2023-yil
yanvar-iyun




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 31,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahri 13,8%, Uchko'prik tumanida 17,9% hamda Farg'ona shahrida 9,7%ga to'g'ri keladi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib, 662,3 mlrd.so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 17,9 %i, Qo'qon shahrida 510,2 mlrd.so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishining 13,8 %i shuningdek, Farg'ona shahrida 358,5 mlrd.so'mlik iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami iste'mol mahsulotlari hajmidagi ulushi 9,7 %ni tashkil etdi.




mlrd.so'm

O'sish sur'ati %da


Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 926,8 ming.so‘m bo‘lgani holda 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 100,1 %ni tashkil etdi. Bunda hududlar bo‘yicha Uchko‘prik tumanida 2789,9 ming so‘m, Qo‘qon shahrida– 1672,5 ming.so‘mga, Qo‘shtepa tumanida 1407,7 ming so‘mga, Qo‘qon shahrida esa 1672,5 ming so‘mga to‘g‘ri keldi.




Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami oziq-ovqat mahsulotlari hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib 23,3 %, Bag‘dod tumaniga 9,2% ni , shuningdek, Qo‘qon shahri 11,4% ni, Farg‘ona shahri esa 8,5 %ni tashkil etdi.



Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi %



	hajmi mlrd.so‘mda	o‘sish sur’ati %da
Yozyovon	33,5	109,2
Furqat	66,1	93,6
Dang‘ara	45,9	93,8
Farg‘ona t.	71,4	139,8
O‘zbekiston	52,3	103,4
Toshloq	25,1	106,8
So‘x	21,9	109,4
Rishton	60,1	284,6
Uchko‘prik	382,5	105,5
Quva	109,4	103,5
Beshariq	30,0	110,8
Buvayda	33,0	65,0
Bag‘dod	150,7	115,9
Qo‘shtepa	36,9	82,9
Oltiariq	34,2	112,2
Marg‘ilon sh.	115,0	88,3
Quvasoy sh.	45,7	126,3
Qo‘qon sh.	187,6	73,9
Farg‘ona sh.	140,3	72,1

0% 20% 40% 60% 80% 100%

■ hajmi mlrd.so‘mda ■ o‘sish sur’ati %da

Hudular bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'on'a viloyati jami nooziq-ovqat mahsulotlari hajmidagi eng yuqori ulushi shahar va tumanlar orasida Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 15,6%ni, Farg'on'a shahrida 10,6% shuningdek, Uchko'prik tumanida 13,6 %ni tashkil etadi.




Farg'on'a sh.	218,1	112,0
Qo'qon sh.	322,6	101,6
Quvasoy sh.	21,8	69,8
Marg'ilon sh.	163,1	111,3
Oltiariq	48,6	93,1
Qo'shtepa	251,4	220,8
Bag'dod	130,6	86,8
Buvayda	95,7	122,9
Beshariq	24,1	258,6
Quva	39,2	91,6
Uchko'prik	279,8	117,6
Rishton	25,8	113,8
So'x	10,8	86,0
Toshloq	184,2	62,2
O'zbekiston	30,9	121,5
Farg'on'a t.	8,0	74,8
Dang'ara	99,1	106,5
Furqat	92,0	105,7
Yozyovon	15,6	85,2

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2023-yilning yanvar-iyun oylarida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 668,5 mldr.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,5 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida viloyatdagi So‘x, Yozyovon, Furqat tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Marg‘ilon shahri (97,3%), Dang‘ara tumani (74,4%), Uchko‘prik tumani (74,3%), Buvayda tumani (71,1%), Bag‘dod tumani (63,2%), tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar, Quva tumani (47,0%), Farg‘ona tumani (20,4%), Toshloq tumani (17,6%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



2023-yil 1-iyul holatiga

Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 12393 ta sanoat korxonalarini ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ularidan 7949 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 964 tasi (faoliyat ko‘satayotgan korxonalar umumiy sonining 12,1 %) Qo‘qon shahriga, 899 tasi (11,3%) Farg‘ona shahriga, 757 tasi (9,5 %) Marg‘ilon shahriga, 555 tasi (7,0%) Uchko‘prik tumaniga, 470 tasi (5,9 %) Dang‘ara tumaniga, 464 tasi (5,8 %) O‘zbekiston tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.



Yangi tashkil etilgan

2022-yil → 971 dona

Yangi tashkil etilgan korxonalar

2023-yil → 999 dona



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

2022-yil → 10347 dona

2023-yil → 7949 dona

Faoliyat ko‘rsatayotgan

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 122 ta loyiha bo'yicha 1 267,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 13,3 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

2022-yil yanvar-iyun

Loyihalar soni, birlikda **140 ta**

Korxonalar soni, birlikda **119 ta**

Ishlab chiqarish hajmi
712,4
mlrd.so'm

Yaratilgan yangi ish o'rnlari,
birlikda

465 ta

2023-yil yanvar-iyun

Loyihalar soni, birlikda **122 ta**

Korxonalar soni, birlikda **106 ta**

Ishlab chiqarish hajmi
1 267,1
mlrd.so'm

Yaratilgan yangi ish o'rnlari,
birlikda

457 ta

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida 457 ta yangi ish o'rnlari yaratildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rnlari soni kamayganligi kuzatildi.